



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

IJTIMOIIY VA MADANIY RIVOJLANISH: AN’ANALAR VA
ZAMONAVIYLIK O’RTASIDAGI MUVOZANAT

Amirova Nodira Shamshiyevna

E-mail: nadiraamirova90@gmail.com

Alfraganus Universiteti, Pedagogika fakulteti,

Psixologiya (faoliyat turlari) yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Zamira Bilolova Baxtiyarovna

“Alfraganus Universiteti” Pedagogika fakulteti,

Psixologiya fanlari doktori, Phd

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy va madaniy rivojlanish, an’analar va zamonaviylik o’rtasidagi muvozanat so’zlariga ta’rif, tushunchalarning mohiyati, Prezident Qarorlari, an’analariga bugun yoshlar qay darajada amal qilayotgani, qadriyatlarimizning mentalitetimiz bilan nechog’lik chambarchas bog’liqligi haqida so’z yuritiladi. Maqolada jamiyatda ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida an’analar va zamonaviylik o’rtasidagi o’zaro ta’sir va muvozanat masalalari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье приведены определения таких понятий, как социальное и культурное развитие, а также баланс между традициями и современностью. Речь идет о сущности понятий, соответствующих постановлениям степени соблюдения традиций современной молодежью, а также, о том, насколько наши ценности тесно связаны с менталитетом. В статье анализируются вопросы взаимного влияния, противоречий и баланса между традициями и современностью в процессе социального и культурного развития общества.

Annotation: This article provides definitions of the terms social and cultural development, as well as the balance between traditions and modernity. The



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

discussion focuses on the essence of the concepts, the extent to which modern youth adhere to traditions, and how closely our values are intertwined with our mentality. The article analyzes the issues of interaction, contradictions, and balance between traditions and modernity in the process of social and cultural development of society.

Kalit soʻzlar: milliylik, rivojlanish, madaniyat, urf odatlar, bilim, koʻnikma, Prezident Qarorlari, kinosanoat, madaniy xizmat, anʼanalar, zamonaviylik, islom markazi, huquq va burch, jamiyat va boshqalar.

Ключевые слова: навыки, постановления Президента, киноиндустрия, культурное обслуживание, традиции, современность, Исламский центр, право и обязанности, общество и прочее.

Keywords: National identity, development, culture, customs and traditions, knowledge, skills, Presidential decrees, film industry, cultural services, traditions, modernity, Islamic center, rights and responsibilities, society and others.

Kirish

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan glaballashuv hayot ritmi har bir mamlakatning milliy va madaniy rivojlanishiga taʼsir koʻrsatmay qolmaydi albatta. Bu jarayon milliy anʼanalarni saqlab qolgan holda, jumladan, jaxon sivilizatsiyasi bilan hamohanglikni ham talab etadi. Bu qiyin vaziyat bilan yurtimiz qay darajada yuzlashayotganini quyida koʻrib chiqamiz.

Ijtimoiy va madaniy rivojlanish, anʼanalar va zamonaviylik oʻrtasidagi muvozanat haqida soʻz yuritar ekanmiz, avvalo har bir soʻzni magʻzini chaqib chiqsak, maqsadga muvofiq boʻladi.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

Ijtimoiylik- bu ko'plik, jamoaviylik, ongli shaxslarning ma'lum bir maqsad va harakat ostida yig'ilishi, birgalikda harakat qilishishi. Bu insonning jamiyatda faol ishtirok etishi, boshqalar bilan hamkorlik qilib yashashi, o'z huquq va burchlarini anglab, jamiyat manfaatlarini uchun harakat qilishidir.

Madaniyat – bu insonlarning o'zini tutishi, odobi, dunyo qarashi. U jamiyatning tarixi, turmush tarzi, urf odatlari, an'analari, qadriyatlarini, tili, dini, yasash tarzini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish – bu doimo olg'a intilish, o'sish, takomillashish, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

An'analar- bu uzoq yillar davomida shakllangan hayot tarzi, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlar, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, jamiyat yoki millat hayotida mustahkam o'rin egallagan urf-odatlar, xalq amal qiladigan lekin hech qayerda yozilmagan qonunlar.

Zamonaviylik –bu zamon bilan hamnafaslik, yangiliklarga ochiqlik, yangi texnologiyalarni, tendensiyalarni bilish va ularni hayotga tatbiq qilish, bu zamon bilan, vaqt bilan birga qadam tashlash va undan oqilona foydalana olish.

O'rta- bu ikki narsaning, holatning ketma-ketligining orasidagi joy yoki daraja.

Muvozanat- bu turli narsa, holat, munosabat o'rtasida tenglik, hamohanglik va barqarorlikni saqlash va shu bilan birga hayotda sog'lom va barqaror rivojlanishga erishish.

Ijtimoiy va madaniy rivojlanish – bu jamiyatda insonlar hayotining yaxshilanishi, ahloqiy, madaniy, ma'naviy, maorifiy, va ishonchli ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, takomillashib borish jarayonidir.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

Buni hayotda nimalarda ko'rish mumkin? Bu, avvalo, insonlarning bilim olishga intilishida, jamiyatda bilim olish sharoitlarining yaxshilanishi, sog'liqni saqlashga e'tiborning oshishi va rivojlanishi, aholi o'rtasida ishsizlikning qisqartirilishi, aholini ish bilan ta'minlanishi, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyki inson hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi barcha omillar ijtimoiy rivojlanishga asos bo'ladi. Bu omillar faqat tinch va osuda, rivojlanayotgan davlatda amalga oshadi.

Jumladan, bizning yurtimizda bu borada qilingan ishlarga e'tibor qaratamiz:

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Prezidenti tomonidan ijtimoiy va madaniy rivojlanish sohasiga oid bir qator muhim qarorlar qabul qilingan. Quyida ularning eng muhimlari va mohiyati keltirilgan:

1.Madaniy sektoridagi dasturiy islohotlar (iyul 2023) – 2023-yil 27-iyul kundagi Prezident farmoni UP-114, madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, madaniy hayotni jaxon standartlariga moslashtirish, yoshlarni madaniyatga keng jalb etish, “ERP madaniyat” raqamlashtiruv tizimini joriy etish, mahalliy an'analarni raqamlash, ommaviy madaniy tadbirlar va teatrlar faoliyatini xususiy sektorga bosqichma bosqich topshirish kabi choralarni nazarda tutadi.

Bunda :

- ~ Kutubxonalar, sinov kinoteatrlar, bolalar san'at maktablari tashkil etilib,
- ~ Milliy musiqa va teatrlar uchun kadrlar tayyorlash tizimlari kuchaytirildi,
- ~ Kamonchilik va hunarmandchilik merosni raqamlash va xalqaro qit'alarga reklama qilish yo'li bilan saqlash choralari belgilandi.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

2. Milliy kinematografiya va kino san’ati (2021-2024) - 2021 yilda Prezident Dekreti N 6202 asosida **O‘zbekiston Milliy Rivojlanish Markazi** tashkil etildi. Kinosanoatni davlat tomonidan moliyaviy qullab quvvatlash va xalqaro festivallar , filmlar tarmog’ini rivojlantirish bilan shug’ullanadi. 2024-yil 5 iyun kuni qabul qilingan farmon esa milliy tarixga bag’ishlangan filmlar sikllarini yaratish , kinematografiya mutaxassislarini tayorlashga bag’ishlangan ilmiy malumot yunalishlarini kengaytirishni nazarda tutdi.

3. Uzluksiz ijtimoiy madaniyat va jamiyat massalarini qullab quvvatlash (dekabr 2023) – 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan PP-406 qaror jamiyatga ko’rsatilayotgan madaniy xizmatlar xajmini ko’paytirish , madaniy infratuzilmaga sarmoyalarni jalb etish va inklyuziv madaniyatni rag’batlantirishga qaratilgan choralar tadbirini o’z ichiga oladi.

4. Oila , yoshlar va jamiyat muhofazasi (dekabr 2023) - UP- 209 , UP-210, va PP-402 kabi qarorlar joriy etilib, mahalla institutlarini rivojlantirish , oilaviy va genderlik tenglikni ta’minlash , yoshlarni ijtimoiy faollashtirish va nogironlarga ko’maklashish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan intilishlar jarayonga kiritildi.

5. Marosim va to’y tomon chiqimlari madaniyati (2025, Aprel) - ~2025 yil 22 aprelda qabul qilingan yangi dastur doirasida to’y liboslari, to’y marosim va tadbirlarda sarf xarajatlarni tartibga soladigan yangi normalar joriy etish nazarda tutilmoqda. Bu- sarflanmaslik madaniyatini shakllantirish va jamiyatda tejamkorlik kayfiyatini kuchaytirishga qaratilgan tashabbusdir.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

“Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonun, “Madaniyat sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi ” kabi xujjatlar ana shu muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islom sivilizatsiyasi markazi , madaniy meros ob’yektlarining tiklanishi ,kinosanoatni qo’llab quvvatlash ham zamonaviylik va milliylik uyg’unligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu qarorlar bilan davlat madaniyat va ijtimoiy-ruhiy rivojlanish soxasida aktiv islohotlar olib borilmoqda. Endi an’analar va zamonaviylik o’rtasidagi muvozanat haqida so’z yuritar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, An’analar- bu avloddan avlodga o’tuvchi madaniy meros bo’lib, xulq va dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Buni yurtimiz miqyosida ko’rib chiqsak.

Yer yuzida juda ko’plab millat va elatlar bor va ularning har biri o’zining tarixi, madaniyatiga ega. Shu jumladan bizning yurtimiz ham boy madaniy tarix va go’zal madaniyatga ega. Muhimi, boshqa davlatlar o’laroq, bugun bizning yurtimiz ham milliylikni va zamonaviylikni uyg’unlantira olgan, o’z tarixini va kimligini unutmagan xalq. Madaniyatidan faxrlangan va zamon bilan uyg’unlashtira olgan, buni ayniqsa yosh dizaynerlarimiz ishlarida ham ko’rishimiz mumkin, ular o’zlarining mualliflik ishlarida zamonaviy kiyimlarda milliylikni uyg’unlashtira oldilar va jaxon podiumlariga olib chiqdilar!

Jumladan , **Art Style.Uz va Navqiron O’zbekiston festivallari** an’anaviy san’at bo’lib, ularda milly qoliplar zamonaviy dizayn va yosh ijodkorlar bilan birlashadi. Bu madaniy tadbirlar “an’ana va zamonaviylik” munosibligini ko’rsatadi- zamonaviylikda an’analar saqlanadi va yangi shakl oladi. Bugun jaxonning rivojlangan davlatlari boshda do’ppi va ustida atlas bo’lgan o’zbekni tanimoqda va tan olmoqda. Faqat bizgagina hos bo’lgan urf odatlar va qadriyatlar xalqimizning mentalitetini, shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarini belgilab



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

beradi. Masalan, o'zbekona oilaviy munosabatlar, mexmondo'stlik, hurmat, fidoyilik kabi fazilatlar aynan milliy an'analar asosida shakllanadi. Milliylik va zamonaviylikni uyg'unligini kundalik hayotimizda ham yoshlarimizning birgina kiyinish madaniyatida ham ko'rishimiz mumkin. Hozirda qizlarimizning ayniqsa hijob kiyimlarini zamonaviy talqinda yarashtirib kiyishlari, yoki oddiy kundalik kiyimlarining ham ochiq sochiq emasligi, qizlarimiz zamonaviy bilimlar, dunyo tillarini bilsada, kiyinish madaniyatida hayoning ustunligi quvonarli hol albatta. Bugungi glaballashgan zamonda bu meyorini ushlab albatta oson emas. Lekin, kuzatuvlarimdan shuni bemalol ayta olamanki, O'zbek qayerda bo'lmasin O'zbek!

Dunyoning qaysi burchagida yashamasin, qo'li ko'ksida, ochiq chexra, ochiq dasturxon va mazali Palovi bilan kutib oladi. Qayerda bo'lmasin, ibosi, hayosi, o'zbek mentaliteti ustuvor! Faxr bilan ayta olamanki, xatto O'rta Osiyo davlatlari orasida -ham milliylikni, ham zamonaviylikni uyg'unlashtira olgan, ikki omil o'rtasida “oltin o'rtalikni” ushlab bilgan xalqdirmiz!

O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu jihatda muhim: u ilmiy va madaniy markaz sifatida ijtimoiylik, madaniy va diniy an'analarni zamonaviy konteksta rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: An'analar va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanat: An'analar – bu millatning ruhiy ustuni va madaniy asosi, zamonaviylik esa taraqqiyot, yangilikka ochiqlik va jamiyatning global rivojlanishida orqada qolmasligidir. Muvozanat shundaki- milliy qadriyatlardan voz kechmasdan, zamonaviy bilim, texnologiya va fikrlashni jamiyatga mos ravishda joriy etish zarur. An'analarni yaxshi anglab va qayta ko'rib, ularni innovatsiya bilan boyitish orqali jamiyatda ham barqarorlik, ham taraqqiyot ta'minlanadi. Bu muvozanatni saqlashda ta'lim, madaniyat muassasalari, davlat siyosati va ommaviy vositalarning o'rni beqiyos. Mazkur muvozanat nafaqat



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

milliy qadriyatlarni saqlash, balki ularni yangi bosqichda rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ~ O'zbekiston Prezidenti qarorlari (2025)- madaniy – ijtimoiy sohasidagi islohotlar ;
2. ~ Center for Islamic Civilisation in Uzbekistan;
3. ~Abdullayev Z. (2020) O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish strategiyalari va milliy qadriyatlar. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
4. ~Tojiyev A.(2019) Madaniy meros va glaballashuv jarayonida milliylik masalasi. Toshkent : Ijtimoiy fanlar instituti.
5. ~ Mirziyayev Sh. (2021) An'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar uyg'unligi. “ Jamiyat va boshqaruv ” jurnali. N 2, 45-52 betlar.
6. ~ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “ Madaniyat sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi to'g'risida” PQ- 4462-son. 2023 yil.
7. ~ Qurbonov J. (2022) Zamonaviylik va milliylik: madaniy taraqqiyotning falsafiy va ijtimoiy asoslari. “ Falsafa va hayot “ jurnali, N4, 30-38 betlar.